

KORPORATIV DEADLOKDAN HIMOYALANISHDA KORPORATIV SHARTNOMANING ROLI

*Abduxaliov Shahboz Zafar o‘g‘li
TDYU mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada korporativ shartnomaning deadlok (tanglik holati)dan himoyalanishdagi roli va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida korporativ shartnomaning huquqiy mohiyati, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tajribasi va O‘zbekiston sharoitidagi joriy holat chuqur o‘rganildi. Maqolada korporativ deadlokning ta’rifi, vujudga kelish sabablari hamda kompaniya faoliyatiga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri tahlil etilgan. Korporativ shartnomaning profilaktik, tartibga soluvchi va himoya funksiyalari orqali deadlokdan samarali himoyalanish mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Xususan, aksiyadorlar o‘rtasidagi huquq va majburiyatlarni oldindan belgilash, nizoli vaziyatlarda harakat algoritmlarini yaratish va ovoz berish tartiblarini reglamentlash orqali kelishmovchiliklarning oldini olish imkoniyatlari tadqiq etilgan. O‘zbekiston qonunchiligidagi korporativ shartnoma institutining shakllanish holati tahlil qilib, maxsus normativ bazaning etishmasligi, amaliy qo’llash mexanizmlarining aniq belgilanmaganligi kabi kamchiliklar aniqlangan. Tadqiqot natijasida xalqaro tajribani o’zlashtirib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: korporativ shartnoma, deadlok, tanglik holati, korporativ boshqaruv, aksiyadorlar kelishuvi, nizolarning oldini olish, O‘zbekiston qonunchiligi.

Kirish

Zamonaviy biznes muhitida korporativ boshqaruv masalalari tobora murakkablashib bormoqda. Xususan, aksiyadorlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar va qarorlar qabul qilishda tiqilib qolish holatlari - ya’ni korporativ deadloklar kompaniya faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Korporativ shartnoma bu kabi vaziyatlardan himoyalanishning muhim vositasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 noyabrdagi PQ-415-sodan qarori bilan tasdiqlangan Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ning 5-bandida xo‘jalik jamiyatlari ishtirokchilarining korporativ shartnoma tuzish huquqini va huquqiy asoslarini belgilash nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida korporativ shartnoma bilan bog‘liq qoidalarning mavjud emasligi, jamiyat ishtirokchilarining o‘z korporativ huquqlarini amalga oshirish imkoniyatlari cheklangan.

XIX asr oxirlarida Amerika va Angliyada paydo bo'lgan korporativ shartnoma instituti tez orada butun Evropaga tarqaldi va kompaniya a'zolarining huquqlarini tartibga solish mexanizmi sifatida keng qo'llanila boshlandi

Xorijiy mamlakatlardan qonunchiligi tahlil qilinganda deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda, shu jumladan, AQSh, Angliya, Germaniya, Fransiya va boshqa evropa mamlakatlarida, shuningdek, Rossiya, Belarus, Ukraina davlatlarida korporativ shartnoma bilan bog'liq qoidalar mavjud va amalda qo'llanib kelinmoqda. Yuridik adabiyotlarda korporativ shartnomaning mazmuni va huquqiy xususiyatlari ikki asosiy yo'nalish bo'yicha tadqiq qilinadi. Birinchi yondashuv aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar o'rtasida tuzilgan kelishuvlarni o'rganadi, ikkinchisi esa har qanday yuridik shaxsning ishtirokchilari tomonidan tuzilgan korporativ huquqlarni tartibga soluvchi shartnomalarni tahlil qiladi.

Dastlabki konsepsiya Yu.M.Jornokuy, I.V.Spasibo-Fateyeva, A.N.Vinnikllar kabi olimlarning tadqiqotlarida aks etgan. I.V.Spasibo-Fateyevaning fikricha, aksiyadorlar kelishuvi o'ziga xos shartnoma bo'lib, u fuqarolik huquqi tamoyillari va aksiyadorlik jamiyatlarini to'g'risidagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladi. Bu murakkab kelishuv tashkiliy xarakterga ega bo'lib, uning ijrosi aksiyalarni sotish majburiyati yoki ularning aylanishini vaqtinchalik cheklash orqali ta'minlanadi.

Hozirgi davrda korporativ shartnomalarning huquqiy mohiyati kengroq kontekstda o'rganilmoqda. M.M.Sigidinining ta'rifiga ko'ra, korporativ shartnoma - bu korporativ yuridik shaxs a'zolarining faoliyatini muvofiqlashtirish va umumiy manfaatlarni amalga oshirish maqsadida ularning korporativ huquqlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan ko'p tomonlama kelishuvmdir.

V.V.Vasileva korporativ shartnomaning mohiyatini aniqlash uchun uning ikki guruh xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi:

- Bitim sifatidagi umumiylar belgilari:** ixtiyoriy xarakter, tomonlarning mavjudligi, huquq va majburiyatlarni vujudga keltirish maqsadi, kelishuvga asoslanganlik, erkin iroda ifodalash, qonuniy shakl talablari, qonuniylik va haqiqiy huquqiy oqibatlarga yo'naltirilganlik.
- Ajratuvchi xususiyatlar:** boshqa shartnoma turlaridan farqlash asosi shartnoma predmeti hisoblanadi.¹

Shu nuqtai nazardan, jamiyat ustavi qoidalari va korporativ shartnoma o'rtasidagi nisbat bilan bog'liq vaziyatni ham aniqlash talab etiladi. Odatda korporativ shartnomada ishtirokchining ustav kapitalidagi ulushni (uning bir qismini) sotib olish

¹ Корпоративное право Украины: проблемы теории и практики: монография / Васильева В. А., Зелиско А. В., Луц В. В., Саракун И. Б., Сищук Л. В. [и др.]; под общ. ред. проф. В. А. Васильевой. Ивано-Франковск, 2017. - 224 с.

yoki sotish huquqiga ega bo‘ladigan yoki shunday majburiyatni zimmasiga oladigan, shuning ushbu huquq va majburiyat vujudga kelish paytini aniqlaydigan shartlarni belgilaydigan assolar yoki tartibi nazarda tutilishi mumkin. Qolaversa, jamiyat ishtirokchisining ustav kapitalidagi ulushni sotib olishga nisbatan imtiyozli huquqini realizatsiya qilish tartibini belgilovchi holatlar jamiyat ustavida MChJ ishtirokchisining imtiyozli huquqini realizatsiya qilishning boshqa tartibi nazarda tutilishi va ustav yoki korporativ shartnomaga muvofiq, korporativ huquqni begonalashtirishda bunday huquq umuman qo‘llanilmasligi mumkin.

Korporativ shartnoma taraflari nafaqat ishtirokchining huquqlarini amalga oshirish yo‘llari to‘g‘risida, balki korporativ shartnoma shartlari ustav qoidalariga mos kelmasligi to‘g‘risida ham kelishish huquqiga egadirlar. Bir tomondan, ushbu qoida ishtirokchilarning korporativ huquqlarini amalga oshirishning moslashuvchan mexanizmlarini joriy etishdan dalolat beradi, ammo boshqa tomondan, bu jamiyatda korporativ nizolarni keltirib chiqarish va qonun ustuvorligini buzilishiga olib keladiganomillaridan biri bo‘lishi mumkin. Zero bu qoida alohida ishtirokchilar guruhiga jamiyat manfaatlariga zid harakat qilish imkoniyatini berishi mumkin, chunki ustav loakal hujjat sifatida kompaniyaning korporativ manfaatlarni ta’minalashga qaratilgan strategik faoliyatini aks ettirish manbai hisoblanadi².

Korporativ munosabatlar rivojlanishi bilan ular bilan bog‘liq munosabatlarning yangidan-yangi turlari payod bo‘la boshlaydi. Ana shunday munosabatlardan biri bu korporatsiyda kelib chiqadiga tanglik holatidir. Tanglik holatiga turli olimlar turlicha ta’riflar berishgan.

Yuridik adabiyotlarda korporativ tanglik (dedlok) borasida bir qator fikrlar bildirilgan. Xususan, N.Kozlovaning fikricha “dedlok deganda korporativ tipdag‘i yuridik shaxs ta’sischilar o‘rtasidagi nizoli vaziyat tushuniladi va bu holatda ta’sischilar ovozlar soni bo‘yicha teng ulushga ega bo‘lgan bo‘lsalar-da, bir-birlari bilan kelisha olmaydilar”³.

D.I. Stepanov dedlokni quyidagicha tavsiflaydi: “korporatsiya ishtirokchilari uning faoliyatini boshqarishda ishtirok etish va prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan masalalar bo‘yicha kelishuvga erisha olmaydigan holat”⁴.

J.I.Yuldashevning fikricha “korporativ tanglik holatlari kompaniya faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi muammolardan biri hisoblanadi. Bunday holat aksiyadorlar

² Chemla, Gilles; Ljungqvist, Alexander; Habib, Michel A (2007). An Analysis of Shareholder Agreements. Journal of the European Economic Association, 5(1):93-121. DOI: <https://doi.org/10.1162/JEEA.2007.5.1.93>

³ Козлова Н.В. Deadlock: как выйти из корпоративного тупика и не попадать в него. Российская и зарубежная практика // <https://istina.msu.ru/publications/article/11895606/>

⁴ Степанов Д.И. Дедлоки в непубличных корпорациях: возможные варианты развития законодательства и судебной практики // Вестник экономического правосудия Российской Федерации. 2015. – № 9. – 7 С.

yoki kuzatuv kengashi a'zolari o'rtasida muhim qarorlar bo'yicha kelishmovchiliklar tufayli yuzaga keladi va kompaniyaning faoliyatiga katta zarar yetkazadi”⁵.

Ushbu ta'riflarning barchasi ko'rsatmoqdaki, tanglik jarayonida korporatsiya ilojsiz ahvolda qoladi. Bunda uning faoliyati jiddiy xavf ostida qoladi. Bu turli natijalarga olib kelishi mumkin. Ulardan eng muhimi bu kompaniyaning moliyaviy jihatdan izdan chiqishidir. Kompaniya moliyaviy jihatdan izdan chiqishi uning aksiyadorlari ko'radigan foydga ham jiddiy zarar yetishiga sabab bo'ladi. Chunki, Aksiyadorlik jamiyatlarini tuzish yoki unga qo'shilishdan asosiy maqsad bu foyda olish hisoblanadi. Foyda berishdan to'xtagan aktiv bu hech kim uchun keraksiz hisoblanadi. Savol tug'iladi korporativ shartnoma qanday qilib korporativ tanglikni oldini olish uchun himoya vositasi bo'lishi mumkin.

Korporativ shartnoma - bu korporativ tizimda faoliyat yurituvchi subyektlar o'rtasida tuzilgan maxsus kelishuvdir. Bu shartnomaning asosiy vazifasi aksiyadorlik va qatnashuv huquqlarini amalga oshirish tartiblarini belgilash hamda tomonlarning bir-biriga nisbatan huquq va zimmalari doirasini aniq shakllantirish hisoblanadi.

Bunday shartnomalar quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

- Ishtirokchilarning korporativ boshqaruvdagi turli manfaatlarini uyg'unlashtirish
- Korporativ nizolar va kelishmovchiliklarning oldini olish
- Korporativ boshqaruv tizimining ish samaradorligini yaxshilash

Boshqacha qilib aytganda, korporativ shartnoma korporatsiya a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi va ularning huquqiy majburiyatlarini aniqlashtiruvchi asosiy vosita vazifasini bajaradi.

Yuqorida ham korporativ shartnomaning birlamchi maqsadlaridan biri sifatida nizolar va kelishmovchiliklarning oldini olish ko'rsatilgan.

Fuqarolik Kodeksiga kiritilgan ta'rifida ham: “Xo'jalik jamiyatining ishtirokchilari yoki ayrim ishtirokchilari o'z a'zolik huquqlarini amalga oshirish to'g'risida o'zaro korporativ shartnoma tuzishga haqli. Ushbu shartnomaga muvofiq mazkur xo'jalik jamiyatining ishtirokchilari o'z a'zolik huquqlarini amalga oshirish yoki ularni amalga oshirishdan o'zini tiyish (voz kechish), shu jumladan jamiyat ishtirokchilarining umumiyligi yig'ilishida ovoz berish, jamiyatni boshqarish bo'yicha harakatlarni kelishib amalga oshirish o'z ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (aksiyalarini) ma'lum narxda yoki muayyan holatlar yuzaga kelganda qo'lga kiritish yoki boshqa shaxsga berish yoxud qo'lga kiritishdan yoki boshqa shaxsga berishdan o'zini tiyish majburiyatini oladi.”⁶ Bunda shartnomada jamiyat

⁵ Yuldashev, J. I. (2024). The Importance of Using Modern Technologies in Resolving Corporate Deadlock Situations. American Journal of Education and Evaluation Studies, 1(7), 351–356. Retrieved from <https://semantjournals.org/index.php/AJEES/article/view/370>

⁶ <https://lex.uz/docs/-111189>

faoliyatida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan kelishmovchiliklar oldin prognoz qilingan holda shartnomada uni buzish bilan bog‘liq oqibatlar ham ko‘rsatib o‘tiladi. Ushbu shartnomada taraflarga huquq berish birga majburiyat ham yuklaydi ya’ni umumiyl ma’noda korporativ shartnomada ko‘proq tiyib turish mexanizmi vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, korporativ shartnomaning deadlok (tanglik holati)dan himoyalanishdagi roli muhim hisoblanadi. Korporativ deadlok zamonaviy biznes muhitida kompaniya faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy muammolardan biri bo‘lib, aksiyadorlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar natijasida kompaniyaning strategik qarorlar qabul qilishdan ojiz qolishi, moliyaviy barqarorlikning buzilishi va biznes faoliyatining to’xtab qolishiga olib kelishi mumkin. Korporativ shartnomada ushbu muammolardan himoyalanishning eng samarali vositasi sifatida profilaktik, tartibga soluvchi va himoya funksiyalarini bajaradi. U aksiyadorlar o‘rtasidagi huquq va majburiyatlarni aniq belgilash, potentsial kelishmovchiliklarni oldindan prognoz qilish, nizoli vaziyatlarda harakat algoritmlarini va ovoz berish tartiblarini reglamentlash orqali korporativ boshqaruva tizimini mustahkamlaydi. Shartnomaning "tiyib turish mexanizmi" vazifasini bajarishi uning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston qonunchiligidagi korporativ shartnomasi instituti hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, maxsus normativ bazaning etishmasligi, amaliy qo’llash mexanizmlarining aniq belgilanmaganligi va xalqaro tajribaning yetarli darajada o‘zlashtirilmaganligi kuzatilmoqda. Fuqarolik Kodeksiaga kiritilgan ta’rif boshlang‘ich qadam bo’lsa-da, keng qamrovli qonunchilik bazasi yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston. 2023. – 53 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. –Toshkent: Adolat. 2017. – 520 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni // “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi”, 2014 yil, 5-son, 128-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni // “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2019 yil 30 dekabr, 52-son, 918-modda
5. Степанов Д.И. Дедлоки в непубличных корпорациях: возможные варианты развития законодательства и судебной практики // Вестник экономического правосудия Российской Федерации. 2015. – № 9. – 7 С.

6. Yuldashev, J. I. (2024). The Importance of Using Modern Technologies in Resolving Corporate Deadlock Situations. American Journal of Education and Evaluation Studies, 1(7), 351–356. Retrieved from <https://semantjournals.org/index.php/AJEES/article/view/370>
7. Chemla, Gilles; Ljungqvist, Alexander; Habib, Michel A (2007). An Analysis of Shareholder Agreements. Journal of the European Economic Association, 5(1):93-121. DOI: <https://doi.org/10.1162/JEEA.2007.5.1.93>
8. Козлова Н.В. Deadlock: как выйти из корпоративного тупика и не попадать в него. Российская и зарубежная практика // <https://istina.msu.ru/publications/article/11895606/>
9. Корпоративное право Украины: проблемы теории и практики: монография / Васильева В. А., Зелиско А. В., Луц В. В., Саракун И. Б., Сищук Л. В. [и др.]; под общ. ред. проф. В. А. Васильевой. Ивано-Франковск, 2017. - 224 с.